

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KAMOLOV IFTIXOR BAXTIYOROVICH

TALABALARGA AMALIY SAN'ATNI O'RGATISHDA KREATIV
LOYIHALASHTIRISHNI FAOLLASHTIRISH
NAZARIYASI VA METODIKASI

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tasviriy san'at)

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of sciences (DSc)

Kamolov Iftixor Baxtiyorovich

Talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirish nazariyasi va metodikasi.....3

Камолов Ифтихор Бахтиёрович

Теория и методика активизации креативного проектирования в обучении студентов прикладному искусству.....29

Kamolov Iftixor Baxtiyorovich

Theory and methods of creative design activation in teaching applied arts to students.....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works59

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KAMOLOV IFTIXOR BAXTIYOROVICH

TALABALARGA AMALIY SAN'ATNI O'RGATISHDA KREATIV
LOYIHALASHTIRISHNI FAOLLASHTIRISH
NAZARIYASI VA METODIKASI

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tasviriy san'at)

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4DSc/Ped392 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Shodiyev Rizamat Davronovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kiyamov Nishon Sadikovich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Ro'ziyev Erkin Iskandarovich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat pedagogika instituti.

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (75) 225-34-13; faks: (75) 221- 00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.)

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (75) 225-34-13; faks: (75) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

S.Q.Qaxxorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari,
p.f.d., professor

Yu.B.Yarmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d., dotsent

SH.O'.Nurullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalq amaliy bezak san'atining eng ko'ha turlari hisoblangan naqqoshlik, ganch o'ymakorligi, zardo'zlik xalqlarning madaniyati va an'analari sifatida qaralib, uning shaxs estetikasi, dunyoqarashi va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan badiiy va ma'naviy rivojlanishga ta'siri yuqori baholanadi. Xususan, College of Fine & Applied Arts (AQSH), The Centre for Applied Research in the Arts (Angliya) va Royal College of Art(London) kabi dunyo reytingida yuqori o'rinlarda turuvchi ta'lim muassasalari amaliy san'at kompozitsiyalarini loyihalash asosida ta'lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat qaratilmoqda.

Jahon amaliy san'ati sohasi tajribasiga ko'ra, kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish, amaliy san'at kompozitsiyasi mashg'ulotlarida "arts and crafts" va "restoration of design objects" kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim oluvchilarning passiv kreativlik potensiallarini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarni amaliy san'atga o'rgatish jarayonida kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish orqali individual sifatlarni namoyon qilishdagi muammolar talabalarning kreativ yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim jarayonida kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va oliy ta'limda tasviriy san'at, amaliy san'at hamda dizayn ta'lim yo'nalishlari loyihalash ishlarida faoliyatli va kreativ yondashuvlarni tatbiq etish ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish amaliy san'at sohasi bo'lajak mutaxassislarining kompetentlik darajalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda milliy an'analar, intellektual va umummilliy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda amaliy san'at ta'limi alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasini uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda Oliy ta'limda amaliy san'at kompozitsiyasining ijodiy yondashuv ko'rinishi sifatida talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar xususiyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

o'shirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.¹

Amaliy san'at ta'lim jarayonida bo'lajak talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish va uzluksiz takomillashtirib borish muammosi yuzasidan dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassalarida, xususan, College of Fine & Applied Arts (AQSH), Massachusetts ixtisoslashgan markazi (AQSH), Manchester ixtisoslashgan markazi (Buyuk Britaniya), Nagoya universiteti huzuridagi Ixtisoslashgan malaka oshirish markazi (Yaponiya), Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaz (Italiya), A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti (RF), Novosibirsk davlat pedagogika universiteti (RF), University of Ottava (Kanada) da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda amaliy san'at ta'limini takomillashtirish va kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishga oid jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishildi. Jumladan, talabalarning uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirishning maxsus modulli-trening dasturlari (Buyuk Britaniya), kreativ loyihalashtirishni ta'lim muhitining jamiyat talablariga hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy qadriyatlari asosida tashkil etish yo'llari (Germaniya), ta'lim subyektlarining ta'lim tizimini rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarini texnik vositalar hamda ta'limiy dasturlar vositasida rivojlantirish (YUNESKO TRXI), amaliy san'at ta'limini takomillashtirish maqsadida jarayonni faollashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligi, texnologik va psixologik tayyorgarligini oshirish yo'llari (RF) ishlab chiqilgan.

Jahonda amaliy san'at ta'limida kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish va takomillashtirish borasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak mataxasislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, modulli ta'lim

¹. Мазкур қисмни ёзишда қуйидаги манбаларга асосланилди: https://tftwiki.ru/wiki/UNESCO_International_Institute_for_Educational_Planning, https://ru.wikipedia.org/wiki/Ассоциация_Лейбница, Heise M. Professionelles Lernen/jencils von FortbildunBnahmen/Heise//Zeitschrift fur Erziehungswissenschaften – 2007. - № 10 (4) – S.51-53; McKee, C.W., Johnson, M., Ritchie, W.F., Tew, W.M. Professional Development of the Faculty: Past and Present, New Directions for Teaching and Learning, Los-Angeles, 2013 – pp. 15-20.; The European Commission on New models of learning and teaching in higher education. October, 2014. Luxemburg: Publications Office of the European Union. – 2014. – 68 p. Вартофский М. Модели. Репрезентация и научное понимание.-Москва: Прогресс, 1988. –С.122; Vincent Greney, Thomas Kellaghan, Assessing National Achievement Levels in Education. The World Bank. 2008. Washington. – pp.57-63.

texnologiyalariga tayangan holda pedagoglar mobilligini ta'minlash maqsadida uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etish, pedagogik ta'limni va uzluksiz ta'limni modellash mexanizmlarini takomillashtirish asosida talabalar kasbiy adaptatsiyasini yo'lga qo'yish, zamonaviy ta'lim mazmunini prognozlashtirish va loyihalashtirishning asosi bo'lgan kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish sohasini rivojlantirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasini rivojlantirish muammolari bo'yicha R.H.Djurayev, R.D.Shodiyev, Sh.U.Nurullayeva, S.Q.Qaxxorov, Q.SH.Tursunov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, Sh.E.Qurbonov, va boshqa olimlar, oliy ta'lim jarayonida kreativ ijodkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha, X.A.To'raqulov, Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov va boshqa olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Amaliy san'at sohasidagi kompozitsiyalar hamda ularni o'qitishni asoslovchi pedagogik tamoyillarini ishlab chiqishni xorijlik B.V.Ioganson, YE.A.Kibrik, G.G.Nisskiy, V.A.Favorskiy, D.A.Shmarinov va K.F.Yuon kabi olimlar asoslaganlar.

An'anaviy amaliy san'at sohasida badiiy-estetik ta'lim-tarbiya masalalarini mamlakatimizda S.S.Bulatov, A.Sulaymonov, N.K.Azizova, K.B.Aqilova D.Zohidova, D.A.Faxriddinova va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Tahlil qilingan ishlarda metodik talablar nuqtai nazardan amaliy san'at kompozitsiyalari ta'limiga oid tadqiqotlarga olib borilgan.

Agar amaliy san'atni o'rganish asosini dunyoning mashhur san'atshunos va tarixchilari: A.N.Benua, Z.A.Bernyakovich, T.G.Goldberg, I.YE.Zabelina, F.Y.Mishukova, A.YE.Felkerzam kabilarning ishlarida, mamlakatimiz tarixchi, san'atshunos olimlari tomonidan xalq amaliy san'ati S.S.Bulatov, A.Sulaymonov, N.K.Azizova, K.B.Aqilova, S.T.Davlatova, H.Ismoilova, K.Shoniyazov va boshqalarning ishlari bo'lsa-da, amaliy san'at ta'limi sohasida kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish bo'yicha yetarlicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Zamonaviy davr talablaridan kelib chiqib, amaliy san'at kasbiy ta'limining yangi mazmuniga san'atshunoslik, badiiy-amaliy, kreativ loyihalash ko'nikmalarining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantirishda doimiy ravishda xalq amaliy san'atiga tegishli kasbiy ta'lim tizimini mukammallashtirishni, badiiy-estetik va amaliy turkumdagi fanlar integratsiyasini hisobga olgan holda zamonaviy o'quv dasturlarini tuzishni, umumiy holda yangi an'analarga va badiiy madaniyatga tayanishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, amaliy san'at kasbiy ta'limidagi kompozitsiya mashg'ulotlarida talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini rivojlantirish: xalq amaliy san'ati kompozitsiyalar mashg'ulotlarida tarbiyaviy, ta'limiy imkoniyatlarni rivojlantirish potensialining yuqoriligi; milliy madaniyatimizning biri bo'lgan naqqoshlik san'atiga talabalarning qiziqishini yuqoriligi; xalq amaliy san'ati kompozitsiyalarini tizimli o'qitish integrativ mazmunda bilimlarni turli sohalarini o'zida jamlaydigan, o'quv jarayoni tashkiliy tamoyillari asosida quriladigan omillar bilan aniqlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy–texnika rejalari asosida ITD–1. A–1–173 “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” (2015–2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maqsadi talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirish nazariyasi va metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

amaliy san'at ta'limi nuqtai nazaridan psixologik, pedagogik, san'atshunoslik, falsafiy estetik tadqiqotlar va manbalarni tahlil qilish va talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishni o'rganish;

amaliy san'at kompozitsiyasi mashg'ulotlarida talabalarning kreativ loyihalash faoliyatining noan'anaviy usullarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish;

bo'lajak mutaxassislarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyanomalar ishlab chiqish;

kompozitsiya mashg'ulotlarida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarining integrativ xususiyatlari talabalar badiiy faoliyat komponentlarini tashkil etish asosida takomillashtirish;

talabalarning mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodika bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish hamda olingan natijalarga matematik statistik ishlov berish.

Tadqiqotning obyekti talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'limda talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirish shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida amaliy san'at muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va san'atshunoslik manbalarini o'rganish; maxsus hamda umumkasbiy fanlari bo'yicha o'quv–metodik adabiyotlar tahlili; oliy ta'lim tajribasini umumlashtirish; kuzatish; o'qituvchi, talabalar bilan so'rovnomalar o'tkazish; pedagogik tajriba–sinovlarni o'tkazish hamda natijalarga matematik statistik ishlov berish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning kreativ qobiliyati va badiiy-estetik didini rivojlantirishning idrok etish, tushunish, talqin qilish va aks ettirish kabi ijodiy faollik xususiyatlari tabiiy shakllar hamda obrazli tasavvurni kompozitsion integratsiyalash asosida ochib berilgan;

kompozitsiya mashg'ulotlarida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarining integrativ xususiyatlari talabalar badiiy faoliyatini hissiy motivatsion, yo'naltiruvchi rejalashtiruvchi, mazmuniy jarayon, nazorat baholash kabi faoliyat komponentlarini tashkil etish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kreativ-yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni fazoviy va badiiy naqsh kompozitsiyalarining tabiatda mavjud shakllarini

kreativ faoliyatni soddalashtirish prinsiplarini (ongli ravishda ehtiyojlarga suyanish, ta'lim va ijodiy vazifalarni mustaqil izlash, aniqlashtirish va ko'p qirrali shakllantirish,) kiritish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kreativlik faoliyatida deduktiv-sintetik tasavvurini xarakterlovchi ixtirochilik, originallik va individuallikning intensiv rivojlanishi tabiiy shakllarni amaliy san'at asarlariga aylantirish, kompozitsion badiiylashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kreativ loyihalash faoliyatining pedagogik modeli tabiat va ta'lim integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan kompozitsiyani real va tasavvurli ifodalash kabi ish turlarini dala amaliyotiga individual uslub namoyishi muhitida kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

amaliy san'at sohasida ta'limni mukammallashtirishga yo'naltirilgan, talabalarda mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi pedagogik modelni tatbiq etish uchun pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan va uning o'quv-uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

talabalarning kreativ-yaratuvchanlik qobiliyatlarini kasbiy ta'lim modelining asosiy prinsiplari, tarkibiy tuzilmasi hamda mazmuni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan va amaliy san'at ta'limi jarayonlarini namoyon etish uchun ko'rgazma sifatida video materiallar ishlab chiqilgan;

nazariy bilimlar bilan amaliyotning uzviy bog'liqligi aniq misollar orqali amaliy san'at kompozitsiyalari bo'yicha xalq amaliy san'atiga taalluqli materiallardan foydalanishga oid ijodiy topshiriqlar kompleksi va texnologiyasi yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi erishilgan natijalarni o'zida aks ettirgan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ushbu muammo bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va ulardan olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish: atrof olamga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabatlarni shakllanganlik darajasining yuqoriligi; badiiy obrazlarni ifodalash uchun real dunyo obyektlarini badiiylashtirish, talqin va kombinatsiyalar qila olish qobiliyatining mavjudligi; loyihaning materialda ifodalanish imkoniyatini yaratuvchi maxsus texnologiyalarga ega bo'lishlik kabi mezonlar taklif etilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'limda talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishga ta'sir etuvchi kompozitsiya ta'limining qonuniyatlari asosida xalq amaliy san'ati an'analarni o'zlashtirish va avlodlar tizimi uzviyligini davomchisi sifatida o'z-o'zini anglash; amaliy san'at natijasida yaratilgan buyumlarni funktsionalligi va estetik qadriyatligini tushunish; atrof-borliqni amaliy san'at asarlari badiiy obrazlarida o'z aksini topganligini ijodiy anglab yetish; kompozitsiyalarda emal, shisha va boshqalar bilan uyg'unligini ta'minlash bo'yicha

amaliy san'at sohasida va pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ko'rgazmali metodik va amaliy takliflar asosida:

tabiiy shakllar hamda obrazli tasavvurni kompozitsion integratsiyalash asosida talabalarning kreativ qobiliyati va badiiy-estetik didini rivojlantirishga oid takliflaridan "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrda 538-132-raqamli guvohnomasi). Mazkur takliflar talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish orqali kasbiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

kompozitsiya mashg'ulotlarida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarining integrativ xususiyatlari talabalar badiiy faoliyatini, faoliyat komponentlarini tashkil etishga oid takliflaridan Qarshi davlat universitetining ilmiy–texnika rejalari asosida ITD–1. A–1–173 "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha bajarishda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti rektorining 2017 yil 12 apreldagi 148X-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy san'at sohasidagi talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish jarayonida mazkur yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassisining malaka va ko'nikmalarni tezkor o'zlashtirishi, ilm olishga, kasbiy mahoratni takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarning kreativ loyihalash faoliyatining pedagogik modeli tabiat va ta'lim integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan kompozitsiyani real va tasavvurli ifodalash kabi ish turlarini dala amaliyotiga individual uslub namoyishi muhitida kiritishga oid takliflaridan "Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari" nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (Qarshi davlat universitetining 2023 yil 31 maydagi 1101-3 raqamli guvohnomasi). Mazkur darslik amaliy san'at sohasida talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 16 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7ta maqola jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 205 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy

yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy–amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda pedagogika nuqtai nazaridan yosh avlodga kasbiy ta'lim berish, ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash g'oyalariga azal-azaldan alohida e'tibor berib kelinganligi, insoniyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida o'zi uchun muhim bo'lgan mehnat malakalari va kasbiy tajribani avloddan-avlodga o'tkazish masalasini hal etishga intilganligi bayon etilgan.

Mazkur bobning 1.1-paragrafida talabalarining kreativ loyihalash faoliyatini tashkil etish masalasi bo'yicha adabiyotlarni tahlili, 1.2- paragrafida kreativ loyihalashtirish faollashtirishning psixologik- pedagogik aspektlar, 1.3- paragrafida amaliy san'at ta'limida zamonaviy pedagogik modelning konseptual asoslari, 1.4- paragrafida kreativ loyihalash jarayonida uchraydigan pedagogik muammolar tahlili keltirib o'tilgan.

Ma'lumki, an'anaviy amaliy san'atda ma'naviy hayotning nodir, noyob jihatlari, iqtisodiy-moddiy xususiyatli voqeliklari, ma'naviy-axloqiy va estetik tamoyillari, milliy mentalitetning tayanch asoslari o'z aksini topgan. Xalq amaliy san'atida an'ana-ma'naviy qarashlarning, ijro texnik usullarini va badiiy namoyon etishning ajralmas qismi sifatida yuzaga chiqadi. Amaliy san'at sohasida badiiy ijodning ravnaqi san'at, fan, iqtisodiyot va hatto, pedagogikaning rivojlanishiga omil bo'lgan. Masalan, xalq amaliy san'ati milliy badiiy-estetik, axloqiy ideallarni qamrab olgan qadimiy an'analardan hisoblanganligi bois, bu san'at kasbiy ta'lim malakalarini rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

An'anaviy amaliy san'at sohasida badiiy-estetik ta'lim-tarbiya masalalarini mamlakatimizda S.S.Bulatov, A.Sulaymonov, N.K.Azizova, D.A.Faxriddinova va boshqalar tadqiq etib, ular an'ana atamasini prinsipial dinamik va o'z-o'zidan rivojlanib boradigan fenomen tarzida ifodalaganlar.

Professor S.S.Bulatovning **“O'zbek xalq amaliy bezak san'ati”** nomli qo'llanmasida ijodiy loyihalarni yaratishni asosiy usuli sifatida va amaliy san'at asarlarini idrok yetish va yaratish jarayoni natijasida ijodiy faoliyat toifasiga asoslanib, talabalarni o'qitish va tarbiyalashga yaxlit yondashuv konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiya, amaliy san'at kompozitsiyasi yaratishda tasviriy san'at ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan ijodiy yondashuvga asoslangan. Yuqorida taklif etilayotgan konsepsiya talabalarda tabiatni yaxlit holda idrok etishni samarali shakllantirish, **“mustaqil ijodiy jarayonni faollashtirish, amaliy san'at orqali muloqot qilishni rivojlantirish, shaxsning ma'naviy rivojlanish tamoyillarini shakllantirish imkonini beradigan amaliy san'at ta'limining zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqishga asos bo'la oladi”**.

O'rganilayotgan ta'lim faoliyatining ikki turini qiyosiy tahlil qilish mumkin, birinchi navbatda, **“loyihalash faoliyati”** ta'rifining mazmunini aniqlashtirish kerak. **“Ma'lumki, falsafiy jihatdan “faoliyat” tushunchasi inson tabiatni tiklaydigan va**

ijodiy o'zgartiradigan, shu bilan o'zini faol subyektga aylantiradigan jarayon sifatida qaraladi va u o'zlashtirgan tabiat hodisalari - uning faoliyati obyekti hisoblanadi"

Ushbu tadqiqot ishimizda ko'rilayotgan "muammo tasviriy va amaliy san'at ta'limi sohasida bo'lganligi sababli, ushbu kasbiy sohadagi asosiy faoliyat turlarini aniqlashtirish muhimdir. "kreativ faoliyat" tushunchasining taniqli ta'riflari orasida, bizning fikrimizcha, O.V.Alekseeva tomonidan taklif qilingan ta'rif ushbu faoliyat turining mohiyatini eng aniq aks ettiradi. Uning talqinida "kreativ faoliyat - bu san'atga xos ijodiy ifoda vositalari yordamida yaratilgan badiiy obrazlarda voqelikni (real yoki xayoliy) idrok etish, tushunish, talqin qilish va aks ettirishga qaratilgan faoliyat turi".

Kreativ loyihalash faoliyatini yakuniy mahsulotiga e'tibor va yuqori darajadagi qiziqish kabi muhim xususiyatlarni qayd etadilar. "Loyihalash" tushunchasi yangi xil va namunalarni yaratish"degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida "loyiha" so'zi ma'no jihatidan bir nechta o'xshash ma'nolarga ega.

Bu, birinchi navbatda, ro'yxat, nizom, qoida, reja, dastur va boshqalar. Ilgari muhandislik, qurilish va hokazolarda mavjud bo'lgan loyihaning an'anaviy tushunchasi keng tarqalgan bo'lib: loyiha obrazi, obyektning maketi, faoliyat belgisi va boshqalar loyihalash faoliyatini amalga oshirish jarayoni sifatida tushuniladi.

Pedagogika sohasida "loyihalash" tushunchasining talqinlaridan biri bo'lajak mutaxassislar loyihalash faoliyatida muayyan topshiriqlarni bajaradigan vosita sifatida ham belgilaydi. Uning mazmunini mutaxassislarning g'oyasiga asoslangan o'zgartirishlar zarurligiga javobi sifatida ochib beradi. Pedagogik jarayonlar loyihalashni maqsad sifatida, ham, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishni faollashtiradi va individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.


Ko'pgina mualliflar "loyihalash faoliyati" atamasini aksiologik, tizimli, subyektiv va texnologik yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar, ya'ni: obyektiv-subyektiv xarakterga va subyektiv qiymatga ega bo'lgan jarayon va natija sifatida qaraydilar.

Ijod — insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko'rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko'riladi, noto'g'ri bo'lsa yangilanadi va h.k. Izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va b.) yuzaga chiqadi. Uni jamiyat e'tirof etsagina haqiqiy, to'liq ijod bo'ladi.

Badiiy ijod – yuksak ma'naviy voqelikni aks ettiruvchi badiiy obrazlarni turli janr va ifodaviy uslubda yaratishga qaratilgan insonning aqliy faoliyatidir. Badiiy ijod adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy san'at, musiqa, raqs, teatr, kino va inson faoliyatining boshqa turlarini o'z ichiga qamrab, dunyoni anglashning xaqqoniy va majoziy shakllarini kashf etib namoyon qiladi.

Badiiy ijod kreativ faoliyatning ajralmas qismidir. Badiiy ijodsiz kreativ faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmaydi. Ijod tushunchasi nazariy tafakkurning mohiyatini mazmunan aniqlash imkonini beradi. Aynan nazariy

tafakkur shaxsning amaliy faoliyati va inson ruhiyati shakllanishi orasida bog'lovchi bo'libgina qolmay, u ijodiy jarayon hamdir.



1-rasm. Ijod turlari.

Ilmiy ijod - bu ilmiy bilishni rivojlantirish, yangi ilmiy bilim olish va undan foydalanish, ilmiy bilimni yangi qonunlar va qonuniyatlar, yangi ilmiy prinsiplar va nazariyalar, inson faoliyatining har xil sohalaridagi amaliyotga faol chiqishlar bilan boyitish bilan bog'liq bilish va bunyodkorlik faoliyatidir.

Ilmiy ijod - bu asosiy jihatida o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning, ularning harakat va rivojlanish qonunlarining mohiyatini abstrakt tushunchalar, sxemalar, formulalar, tenglamalar va hokazolar shaklida ifodalashdan iborat bo'lgan ob'ektiv voqyelikni sub'ektiv aks ettirishdir. Inson ijodiy ilmiy tadqiqotlar yordamida o'zini qurshagan olamga epistemologik jihatdan faol, muttasil ravishda chuqur va keng kirib boradi. Ilmiy kashfiyot ilmiy ijodning muhim jihatida bo'lib, u ilmiy tadqiqot ob'ekti haqida yangi sifatli axborot olish, yangi qonunlar, gipotezalar va nazariyalarni aniqlash, fanning yangi sohalarida ma'lumotlar olishda namoyon bo'ladi. Fanni ijodiy, faol rivojlantirish - hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotining ajralmas jihatidir. Dolzarb ilmiy muammolarning yechimini topishga nisbatan ijodiy, o'ziga xos yondashuv ko'pgina hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlariga xos xususiyatidir.

Tadqiqotimiz doirasida amaliy san'atga o'rgatish jarayonida talabalarda kreativ faollikni shakllantirishga e'tibor qaratib, kreativ faollik tushunchasi faoliyatning xususiyatlari va natijalari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab omillarning o'zaro munosabatlarida yuzaga chiqadi. Tabiiyki, o'quv jarayonini faollashtirishga yo'naltirilgan ta'lim metodlari va usullarining barchasi talabalarning kreativ faolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“Talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirish mazmuni” deb nomlangan ikkinchi bobda talabalarda kreativ loyihalashtirish orqali rivojlantirish konsepsiyasi, talabalarda kreativ loyihalashtirishning pedagogik modeli, talabalarda kreativ loyihalashtirish tamoyillari amaliy san'at kompozitsiyasi, badiiy ijodni namoyon etuvchi muhim omillari haqida fikr yuritilgan.

Amaliy san'atni o'qitish muammosini o'rganish natijasi talabalarga amaliy san'at vositasida badiiy-estetik tarbiya dasturini ishlab chiqish bo'ldi. Ushbu dasturning asosiy tarkibiy qismi xalq amaliy san'atining turli shakllarini birlashtirish

bo'lib, ular o'zaro bog'liq bo'limlar ko'rinishida ifodalangan: badiiy asar, tasviriy, xalq amaliy san'ati. Olimlarning fikricha, topshiriqlarning xilma-xilligi, material va ijro texnikasini erkin tanlash bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishni faollashtiradi va milliy o'zlikni anglashi va shakllantirishga yordam beradi.

Atrofdagi obyekt-fazoviy muhit yordamida talabalarning shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash muammosi S.S Bulatov tomonidan o'rganilgan. Uning fikricha, xalq amaliy bezak san'ati estetik-badiiy taraqqiyotning asosiy elementi bo'lib, muhitda tashkilotchi rol o'ynaydi. Shunday qilib, ilmiy-nazariy yordamga ega bo'lgach, xalq amaliy bezak san'ati oliy ta'limda faol qo'llanila boshlandi. Shu bilan bir qatorda, 1990-yilgacha Xalq amaliy bezak san'ati yo'nalishlari oliy ta'lim kam sonli edi. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik uchun mutaxassislarni tayyorlash turli xil o'rta maxsus o'quv yurtlarida amalga oshirildi, ularning aksariyati hali ham maktablar deb ataldi.

5110800- Taviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishining (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015 yil 21 avgustdagi 303 sonli buyrug'i bilan tasdialangan) davlat ta'lim standartlarida faqat maktablar va kasb-hunar maktablari uchun tasviriy san'at va chizmachilik mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan edi.

Hozirgi davrga kelib ushbu standartlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib amaliy san'atga oid fanlariga ham katta miqdorda soatlar ajratilgan. Darhaqiqat, ushbu standartning paydo bo'lishi xalq amaliy san'ati sohasida oliy kasbiy ta'limni shakllantirishdagi birinchi qadam edi. Mutaxassisning bilim va ko'nikma darajasiga qo'yiladigan talablarni aniqlash majburiyat va o'zgaruvchanlik tamoyillariga asoslanib, oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limining fundamental xususiyatini saqlab qolish imkonini berdi. Yangi ixtisoslik doirasida oliy ta'lim muassasalarida Xalq amaliy bezak san'atining turli turlarin (yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zardo'zlik, ganchkorlik va boshqalar) bo'yicha ixtisoslashtirilgan ustaxonalar ochildi. Shu bilan birga, xalq amaliy san'ati turlari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki yagona ta'lim tizimini qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti" da 60210800-Amaliy san'at (turlar bo'yicha)bakalavr bosqichi 4 yil va 70210801-Tasviriy va amaliy bezak san'ati magistratura bosqichi 2 yil qilib belgilangan.

Tasviriy va amaliy san'at ixtisosligi ta'limida mutaxassislik fanlari asosan ikkinchi kursda "Kompozitsiya asoslari" fanini o'rganishdan boshlanib, diplom ishini loyihalashtirish jarayonida nihoyasiga yetadi. Bu fanni o'rganish o'quvchilar oldiga tevarak borliq olam haqidagi bilim va taassurotlarni chuqurlashtirish va boyitishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlari turkumini qo'yadi. Bu vazifalar ta'lim o'zagini tashkil etadi va talabalarga muayyan tartib hamda muayyan tizimda namoyon bo'ladi. Topshiriqlarni bajarish tabiat shakllarining qonuniyatlarini ochib beradi, shakl konstruktiv tuzilishining uyg'unlashgan tartibini, tevarak borliqning turli-tumanligini ko'rsatib beradi.

Qayd etish lozimki, bir mustaqil bosqichdan keyingisiga o'tish imkoniyati muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganda, o'quvchi unga taklif etilgan bir necha ijodiy g'oyalardan bittasini mustaqil tanlab olib, o'zi topa olgan ko'plab kompozitsion yechim variantlaridan bir yoki bir qanchasini o'zi taklif qilgandagina

amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda g'oyaning, uni ifodalash shakllarining o'ziga xosligi va badiiy ifodalanish darajasini, ta'lim oluvchining oldida turgan tor darajadagi yoki keng ko'lamdagi badiiy vazifani qanday anglaganligi va uni ifodalab berish ehtiyojini, ijodiy izlanishdagi mustaqilligini tahlil qiladi.

Tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalashlarida "Kompozitsiya asoslari" fanini o'qitish jarayoni boshidan oxirigacha talaba grafik usulda bajargan kompozitsiya o'qituvchilar nazorati ostida o'quv ustaxonalari bazasida talabaning o'z qo'llari bilan moddiylashtirilishi, ya'ni mahsulot yaratilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Loyihaning biror bir materialda aks etdirilishi – qog'ozda grafik usulda bajarilgan loyiha muvaffaqiyatining eng asosiy ko'rsatkichidir.

O'quv topshiriqlarini bajarish davomida talaba kompozitsion loyihalashtirishning asosiy vazifalarini va loyihani amalga oshirishda ishlatilishi mumkin bo'lgan materialdan foydalanishning texnik imkoniyatlari, u yoki bu konstruksiyani tayyorlash texnologiyasining xususiyatlarini tushuntirib berishi lozim. Talabalarga kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlari: nisbatlilik, uyg'unlik, yaxlitlik va shu kabilarni doimiy ravishda eslatib borish joiz.


Tasviriy va amaliy san'at ta'limida kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishning ta'lim modelini yaratishda faoliyatli yondashuvdan foydalanish kasbiy mobillik prinsipini hisobga olgan holda amalga oshiriladi va bunda insonning malaka va ko'nikmalarni tezkorlik bilan o'zlashtirish qobiliyati, o'z ma'lumot darajasi va kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borish ehtiyojini tarbiyalash nazarda tutiladi. Ma'lumki, mehnatning mobilligi, ijodiy xususiyati inson dunyoqarashining kengligiga, shaxs o'z mehnat faoliyatida mavjud bo'lgan muammolarni yecha olishiga, shuningdek amaliy san'atning rivojlanish istiqbollari anglashi va o'z shaxsiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchi bugungi kunda bilgan narsalarinigina emas, uning kelgusida egallashi mumkin bo'lgan bilimlarini ham inobatga olish lozim.

Amaliy san'atda hamda kreativ loyihalash sohasida yangi texnologiyalar shakllanishi, innovatsion g'oyalar, innovatsion jarayonlarning vujudga kelishi bilan kasbiy ta'limning mazmuni ham, albatta milliy badiiy san'atimiz sohasidagi eng ijobiy an'analarni inobatga olgan holda zudlik bilan takomillashishi va vujudga kelayotgan yangi shart-sharoitlarga moslashishi kerak bo'ladi. Amaliy san'at ta'limida faoliyatli kasbiy yondashuv kasbiy bilim, malakalarning yangi texnika va texnologiyalar integratsiyasi bilan o'zaro uzviy bog'langan.

Amaliy san'at asarlarini loyihalashtirish va tayyorlashda ko'ptarmoqli badiiy bilimlarni ajratib olish va integratsiyalashning mezonlari bo'lib konstruksiyalarning texnologiyalashganligi, yaratilgan kolleksiyalarning istiqbolga ega ekanligi, ijodiy g'oyalarning yangiligi, yangi texnologiyalar va materiallarda foydalanish xizmat qilishi lozim.

Integrativ ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ayrim tasnif va tushunchalarga aniqlik kiritilgan bo'lib, ular orasida:

2-rasmda amaliy san'at ta'limini optimallashtirishga yo'naltirilgan, nazariy jihatdan asoslangan, amaliyotda sinab ko'rilgan pedagogik modelni umumlashtirilgan tarzda bayon etganmiz.



2-rasm. Talabalarga amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirishning pedagogik modeli.

Amaliy san'at talabalariga amaliy va badiiy san'atni o'qitish jarayonida kreativ faoliyatini rivojlantirish muammosiga echim topish uchun biz ushbu faoliyat jarayonini tadqiqot ishining birinchi bobida keltirilgan ta'riflar asosida ko'rib chiqamiz, ya'ni: tegishli kreativ faoliyati, amaliy san'at ta'lim deganda tabiiy tasviriy va amaliy san'at obyektlarini loyihalash bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi shaklida tashkil etiladigan faoliyat turi tushuniladi, bundan tashqari loyihalarning har bir bosqichi talabalar loyihalarining obyekti hisoblanadi, qaysi bu yaratish uchun zarur bo'lgan texnologik bosqichlar, xom ashyo va vositalar to'g'risida yangi bilim va ko'nikmalarni topishga qaratilgan kreativ faoliyatini tashkil etish bilan chambarchas bog'liq.

Amaliy san'at ta'limi jarayonida kreativ faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari o'quv va amaliy obyektlarni loyihalash, obyekt haqidagi yangi bilimlar, badiiy va ijodiy vazifalarga yechim topish usullari, ularning har bir bosqichida kreativ faoliyati mustaqil izlanishga qaratilganligiga e'tibor qaratsak.

Kreativ faoliyatini faollashtirish muammosiga yechim izlashda, birinchi navbatda, amaliy san'at guruhlarida talabalarning dizayn faoliyatidagi pedagogik vaziyatlardan faoliyat tushunchalari mazmunini aniqlashtirish va faollashtirish kerak.

Shu bilan bir qatorda, shuni ham aytish joizki, kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish tushunchasining mazmuni biz ko'rib o'tgan tadqiqot ishlarida muhokama qilinmagan, biroq kognitiv faoliyatni rivojlantirish tushunchalarini aniqlik kiritishda turli xil yondashuvlar, aqliy faoliyat, ta'lim faoliyatini topish mumkin.

"Talabalarning kreativ faoliyatni rivojlantirish va kreativ vazifalarga yechim topish uchun avvalo talabalarning intellektual, axloqiy, ixtiyoriy ravishda va jismoniy kuchlarini safarbar qilish jarayoni va natijasi, talabalarni kreativ faoliyati tarkibidagi ijodiy komponentlarni rivojlantirishga turtki jarayoni sifatida ko'rib o'tamiz"

Shuni ta'kidlash joizki, kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosiy metodi bu beriladigan ma'lumotlar hajmini oshirish emas, aksincha ularni kichraytirish va tushunishni tezlashtirish o'qitish jarayoni mazmunini darajasini oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdir.

Tasviriy va amaliy san'at ta'limi "konsepsiyasida "kreativ faoliyatni o'rganish" tushunchasini kiritadi. U o'rgatishning tartibga solinadigan, samarasiz ketma-ketlangan shakllari va metodlaridan muammoli, izlashga o'tishda faol ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlarini beradi. Bu esa fikrlash omillarni ta'minlashi, talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatga qiziqishini oshirishi mumkin, bu esa ta'lim jarayonida kreativ faoliyat samaradorligini" oshishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayoni muayyan faoliyatining barcha xususiyatlarini "kreativ fikrlash faoliyati" tushunchasi bilan umumlashtirish mumkin. Talabalarning bilimini shakllantirish orqali kreativ fikrlash faoliyatini imkoniyatlarini oshirish, kreativ fikrlash faoliyatni rivojlantirish har birini intellektual faoliyati metodlari bilan mustahkamlash jarayoni, ya'ni talabalarning eslab olish ixtiyoriy va beixtiyor yodlashdan samarali foydalanishni tashkil etish deb hisoblaydi. O'quv va kreativ faoliyatni rivojlantirishning aqliy faoliyatni faollashtirish uchun puxta o'ylab

topilgan reja asosida tizim bilan bog'liqligi bilan tavsiflanadi.

Kreativ loyihalash faoliyatni faollashtirishni talabalarni jarayonga qiziqitirish, faoliyatini boshqarish, uni maqbul darajaga yetkazish va uni saqlab qolish deb biladi.

Talabalarning kreativ loyihalash faoliyati, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan ta'limning asosiy tushunchalari bilan o'zaro ta'sir intensivligining o'lchovi sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan atrof-muhitning o'zaro ta'siri intensivligining o'lchovi sifatida qaraladi.

Tadqiqotning asosiy g'oyalari va tahlil qilingan yondashuvlarni birlashtirishga asoslanib, tadqiqot ishimizni tashkil etish bosqichida biz talabalarning o'quv va ijodiy dizayn faoliyatini faollashtirishning ushbu ta'rifini kiritdik. Ta'rifni ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida taklif qilingan ta'riflarga mazmun jihatidan eng yaqin qabul qilinadigan ta'rif sifatida qabul qilish mumkin.

Yuqorida berilgan ta'rifga suyanib, biz tadqiqot ishimizda tahlil qilingan konsepsiyaning quyidagi mualliflik tushuntirishini qilmoqchimiz. Tasviriy va amaliy san'atni o'qitish jarayonida talabalarining kreativ loyihalash faoliyatini rivojlantirish – bu kreativ loyihalash faoliyati subyektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir intensivligini amalga oshiradigan hamda rivojlantiradigan jarayoni bo'lib, u amaliy san'at asarlarini yaratish bilan mazmun jihatidan bog'liq bo'lgan kreativ loyihalar va ular uchun vazifalarini topish hamda, ularni yechimini topishga qaratilgan.

“Talabalarning berilgan topshiriqlar mazmuniga ijodiy munosabatini shakllantirishda, kreativ loyihalash faoliyatining tabiati, talabalarning tasviriy va amaliy san'atni o'qitish maqsadiga erishishga yordam beradigan axloqiy harakatlarini ixtiyoriy ravishda qaratilishidir”.

Kreativ loyihalash faoliyatini rivojlantirish jarayonini pedagogik nazorat qilish uchun biz talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini rivojlantirish jarayoniga talabalarning kognitiv faolligini shakllantirish darajasini aniqlash uchun taniqli olimlarning yondashuvlariga moslashish zarur degan xulosaga keldik. [241]. U fikrlash faoliyatning uchta darajasini belgilash metodiga asosan, biz kreativ loyiha faoliyatida talabalar faoliyatining o'xshash bo'lgan uchta muhim darajaga ajratishni taklif qildik:

- reproduktiv faollik, kreativ loyihalash faoliyatini turli tajribalar orqali amalga oshirish. Bu kichik darajadagi shaxsning faoliyati nazarda tutadi;

- izlanuvchan faoliyati-bu talabalarning kreativ loyihalash faoliyatini amalga oshirishning mazmuni, metodlarini tanlash, loyihalashning barcha subyektlari bilan o'zaro munosabatlarning intensivligini anglagan holda mustaqil ravishda amalga oshirish asosida kreativ loyihalash faoliyati vazifalariga yechim izlashni nazarda tutgan holda yuqori darajasi va izlanish faoliyati. Bu darajada talaba o'z oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirishi, ularga yechim topish vositalarini mustaqil ravishda topishi kerak;

kreativ faoliyat-bu faoliyatning eng baland darajasi.

Bu darajaga erishish uchun, kreativ loyihalash faoliyatining barcha subyektlari bilan o'zaro ta'sir intensivligini anglagan holda mustaqil ravishda amalga oshirish asosida talabalar o'zlari kreativ loyihalash faoliyatining alohida vazifalarini tushunadilar va rivojlantiradilar, keyingi bosqichda”, mustaqil ravishda ularga

yechim topishning yangi metodlarini ishlab chiqishda o'z vazifalarini namoyon etadilar. Kreativ loyihalash faoliyatining mazmuniga ijodiy munosabat, shu bilan bir qatorda, ular tasviriy va amaliy san'atni o'qitish maqsadlariga erishishga qaratilgan kreativ loyihalash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Amaliy san'atni o'rgatishda kreativ loyihalashtirishni faollashtirish samaradorligini oshirish metodikasi”** deb nomlangan bo'lib unda talabalarda kreativ loyihalashni faollashtirishda amaliy bilimlar birligini taminlovchi yondashuvlar, kreativ loyihalashni faollashtirish metodikasi samaradorligini oshirish omillari, talabalarni amaliy san'at mashg'ulotlarida kreativ loyihalashtirishga o'rgatish metodikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari hamda tahlili keltirilgan.

Badiiy ijod tabiati va tarkibi, uning ko'rinishlarini kompozitsiyalar vositasida nazariy jihatdan tadqiq qilish, talabalarining metallga badiiy ishlov berish ustaxonalaridagi badiiy kompozitsiya mashg'ulotlaridagi kreativ loyihalashni faollashtirishning samarali yo'llari, shakllari va metodlarini izlash, tajribalar o'tkazishni, ilmiy-tadqiqotlar olib borishni talab qilgan.

Oliy ta'limda kompozitsiya mashg'ulotlarini o'qitishga yangicha yondashuv konsepsiyasini va ilmiy tajribalar o'tkazish rejalarini ishlab chiqish jarayonida talabalarining kreativ loyihalashni faollashtirish muammolarini kompozitsiyalar vositasida aniqlashning ahamiyatini aniqlashga harakat qilingan. Ta'kidlash joizki, kreativ qobiliyatlarni badiiy kompozitsiya asosida talabalarining kreativ loyihalashni faollashtirish fanlararo tavsifga ega ekanligi uchunchi bob xulosalarida atroflicha keltirib o'tilgan.

Tadqiqotimiz oldiga qo'yilgan vazifalar tarkibiga badiiy kompozitsiyaning kreativ loyihalash qobiliyatlarni rivojlantiruvchi vosita ekanligini nazariy jihatdan asoslab berishdan tashqari yana quyidagilar kiradi: talabalarining badiiy bezak obrazini yaratishlari davridagi shuningdek, amaliyot bilan bog'liq holda amaliy san'at asoslari nazariyasini o'qitish mashg'ulotlari jarayonlaridagi kreativ faoliyatlari davomida ularni kreativlikka chorlovchi kuch va bu ishlarni bajarishga yo'naltirilgan ichki ehtiyojlarni aniqlash. Olib borayotgan tadqiqotlarimizning yana bir vazifasi: pedagogik ta'sir etish natijasida talabalarda ichki qiziqishni yuzaga keltiruvchi zaruriy ehtiyojlarning qay darajada ekanligi, ularning sifatini aniqlash.

Naqshli kompozitsiyalar yaratishda shu sohaga bog'liq fikrlash, narsalarni va olamni, real borliqni poetik his qilish, tushunish, o'ylash, tasavvur etish va hayol qilish asos qilib olingan ijodiy metod ham taklif qilingan. Bu uslub xuddi stillashtirish(badiiylashtirish), fazoviy shakllarni boshqa ko'rinishga o'tkazish singari bezakka hos bo'lgan naqshli kompozitsiyalar qurilishi qoidalaridan biridir. Shuningdek, tadqiqotchining taklifi bilan bu metod naqsh kompozitsiyalarini xotiradan va tasavvurdan chizish amaliyotida ham qo'llanilishi mumkin.

Bu kabi operatsiyalar ijodiy faoliyatda estetik didni shakllantiruvchi, shuning natijasida garmonik, yaxlit ko'rinish va ifodaviylikka ega bo'lgan buyumning paydo bo'lishiga olib keluvchi ijobiy natijalar beradi.

Talabalarga kreativ loyihalash asoslarini o'rgatishda o'qituvchi quyidagi asosiy didaktik prinsiplariga suyanadi:

Amaliy san'at va uning qonun-qoidalariga tayanish prinsipi;

o'qitishning tizimliliigi va izchilligi prinsipi;
estetikaning nazariy asoslari bog'lanish prinsipi;
tushuncha shakllanishining muhimligi prinsipi;
o'quv qurollarining maqsadga muvofiq tanlanish prinsipi;
qiziqishlar rivojining maqsadga yo'lantirilganlik prinsipi.

Amaliy san'at ustaxonalaridagi talabalarning kreativ loyihalash faoliyatlari, o'qitishning turli xil ko'rinishlari quyidagilarni o'zida mujassam qiladi: amaliy ishlash, video va audio yozuvlari, ekskursiyalarni tashkil qilish. Bularning barchasi mashg'ulotlarni olib borishda eng samarali usul va metodlarni ajratib olish uchun imkon yaratadi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, amaliy san'at darslarida kreativ loyihalash faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi usullardan foydalanish eng samarali hisoblanadi: fokal obyektlar usuli, nazorat savollari usuli va morfologik tahlil. Tajriba-sinov jarayonida talabalarga amaliy san'at asarlarining aniq loyihalarini amalga oshirish jarayonida ushbu usullardan foydalanishga misollar keltirildi. Amaliy san'at darslarida kreativ loyihalash faoliyati jarayonida ijodiy muammolarni hal qilish usullardan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanmalardan foydalanildi.

Talabalar faoliyatining ushbu turini faollashtirish uchun ishlab chiqilgan metodlarni qo'llash asosida talabalarning amaliy san'at darslarida kreativ loyihalash faoliyatini tashkil etishga misol keltirib o'tamiz, masalan ular o'quv va ijodiy vazifalar tizimi va amaliy san'at o'quv jarayonida muammolarni izchil hal qilish bo'yicha ishlarini to'g'ri tashkil etishdir.

Masalan, kreativ loyihalash faoliyatini tashkil etishda talabalarga tuxum po'choqlaridan tayyorlangan mozayka badiiy loyihasini ishlab chiqish taklif qilindi. Ushbu loyihalar ustida ishlash, loyihalar topshirig'ini tahlil qilishdan boshlab bosqichma-bosqich tashkil etildi. Tahlil qilish bosqichi amaliy san'at asarlari tasvirlarining badiiy g'oyasini izlashni o'z ichiga oladi.

Shu bilan bir qatorda, o'quv va ijodiy vazifalarning maqsadini tushunish talabalar tomonidan muammoli vaziyat, yangi turdagi holatlar sifatida qaraladigan loyihalash ishlari holatini mustaqil ravishda aniqlashtirish sifatida tashkil etiladi. Biz tomonimizdan taklif qilinayotgan metodikaga muvofiq, ushbu bosqichda talabalarning kreativ faoliyat ko'nikmalarini faollashtirish va ular tomonidan taklif qilingan loyihalar, ularning baholash, mazmun yaratish va maqsadlarni belgilash harakatlarini bir-biriga bog'liq ravishda kiritish orqali tashkil etiladi, shu jumladan talabalarga amaliy san'at asarlarini yaratish jarayonlarini namoyish etadigan o'zaro bog'liq grafik tasvirlarning o'zgaruvchan ketma-ketliklarini taqdim etishadi. Bo'lajak mutaxassislar amaliy san'at asarlari loyihasini amalga oshirish uchun mozayka va akvarel texnikasi birlashtirish muammosini o'zlari aniqlashlari va shakllantirishlari mumkin. Ammo, tajribalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning mustaqil faoliyatida murakkabliklar yuzaga kelganda, o'qituvchi taniqli kreativ faoliyat metodlaridan, masalan, so'rovnoma metodidan samarali foydalanishi mumkin.

Ushbu metod suhbat shaklida, masalan, o'qituvchi yoki g'oya rahbarlari tomonidan berilgan savollar shaklida amalga oshiriladi. Nazorat savollari turli maqsadlarga ega bo'ladi va ma'lum bir fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga

qaratilgan bo'ladi. Mozayka texnikasi va akvarelni qo'llash texnikasidan foydalangan holda amaliy san'at asarlari loyihasini yaratish uchun amaliy san'at bo'yicha o'quv materialini tashkil etish nuqtai nazaridan quyidagi savollarni ajratish mumkin:

- mozayka texnikasi an'anaviymi?
- akvarel texnikasi orqali nimalarni yaratish mumkin?
- mozayka texnikasi bilan akvarelni birlashtirib ishlash mumkinmi?
- mozayka texnikasidan foydalanib amaliy san'at asarlarini yaratish uchun ishlatiladigan qanday xom ashyolar, asboblari va uskunalar yetarli darajada qulaylik yaratadi?

Qanday qilib ularni almashtirish yoki takomillashtirish mumkin? va boshqalar.

Berilgan savollarga javob berish orqali talabalar kreativ loyihalash muammolariga aniqlaklar kiritishlari mumkin. Masalan: amaliy san'atni birlashtirishga asoslangan san'at asarlarining loyihasini yaratish uchun mavjud, asboblari va materiallarni qanday takomillashtirish kerak?

Muammoning qo'yilishi talabalar uchun kreativ loyihalash faoliyatida amaliy san'at kompozitsiyalarining shaklini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi. Talabalarga ma'lum bir asarni yaratish g'oyalari tanqidiy tanlash eng yaxshi deb topilgan erkin ijodiy usuli yoki kreativ loyihalashdan foydalangan holda amalga oshiriladi. Mozayka va akvarelni qo'llash texnikasidan foydalangan holda amaliy san'at asarlarini yaratish bo'yicha barcha g'oyalarni tahlil qilib, talabalar tomonidan muammolarni hal qilish uchun eng mos loyilash g'oyasini tanlaydilar.

Masalan, ular mozayka va akvareldan amaliy san'at asarlarining aralash texnikasidan foydalangan holda badiiy bezak asarlari yaratishni taklif qilishadi. Badiiy bezak asarlari yaratish uchun mozayka va akvarel texnikasini birlashtirish muammosini hal qilib, talabalar amaliy san'at asarlari loyihaslarining eskizlari ustida ishlashni boshlaydilar. Ushbu bosqichda talabalarga birinchi turdagi o'quv va ijodiy muammolarni hal qilish yuzasidan g'oyalar taklif etiladi: mozayka va akvarel texnikasidan foydalangan holda, badiiy bezak asarlarini yaratish usullarini birlashtirish yordamida tabiiy shakllarning, eskizlari asosida amaliy san'at asarlari kompozitsiyani yarating. Ushbu vazifalarni bajarish talabalarga amaliy san'at asarlari uchun eskizlar tayyorlash bosqichini kreativ loyihalash faoliyati darajasida o'tkazishni ta'minlaydi.

Ushbu bosqichda talabalarga tanlangan g'oyalarni birlashtirish orqali amaliy san'at asarlari loyihasini yaratishga qaratilgan ikkinchi ko'rinishdagi o'quv va ijodiy vazifalar taklif etiladi. Ko'rib o'tilayotgan misolda biz mozayka usulini va akvarel bilan qo'llash texnikasi haqida gapirib o'tamiz va talabalar turli xil xom ashyolar va amaliy san'at texnologiyasini birlashtirish orqali to'plangan g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini sinab ko'rishga taklif qilinadi.

Shu bilan bir qatorda, kichik tadqiqot muammolarini hal qilish mumkin. Misol uchun:

Mozayka uchun tayyorlangan bo'laklarning o'rniga akvarel bo'yoqlaridan foydalanish mumkinmi?

Ranglangan va xil xil ashyolarning bo'laklaridan mozayka hosil qilish

mumkinmi?

Tayyorlanayotgan buyumlarni bog‘lanishida qanday xom ashyolardan foydalanish mumkin?

Amaliy san‘at asarlari kompozitsiyasini yaratishda kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkinmi?

Ikkinchi ko‘rinishdagi muammoli holatlarni yechish jarayonida tahlillarning ko‘p qo‘llaniladigan ijodiy fikrlash metodidan foydalanish juda yaxshi natija beradi. Misol uchun, mozaykalarni va akvarel texnikasi orqali har xil materiallar bo‘laklaridan amaliy san‘at asarlari loyihasi quyidagi tarkibiy yelemntlar bilan ifodalanishi mumkin: ko‘zgu fonida; ko‘zgu fonidagi gullar tasviri, har xil materiallar bo‘laklarini tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar va boshqalar.

Tanlab olingan tarkibiy elementlarning turli xil variantlarini bir qancha o‘zgartirishlar orqali birlashtirish mumkin bo‘ladi. Tanlab olingan ko‘plab o‘zgartirishlardan talabalar hal qilinadigan ijodiy vazifa uchun eng maqbul variantlarini tanlab oladilar. Misol uchun, mozayka va akvarel bo‘yoqlari bilan ko‘zgu fonida gullar tasviri; mozayka bo‘laklarini ko‘zgu foniga yopishtirish va gullar tasviri akvarel bo‘yoqlari bilan bo‘yash texnikasi. Maqbul variantlarni tanlagandan so‘ng, talabalar tanlangan kompozitsiyalar bilan mustaqil ravishda tajriba o‘tkazadilar va loyihalash yechimining badiiy tasviriga maqbul yechimni topish uchun ularni bir-biri bilan taqqoslaydilar.

Talabalarning amaliy san‘at va loyihalash faoliyatini tashkil etishning navbatdagi bosqichida ularga uchinchi turdagi ijodiy vazifalarni hal qilish – amaliy san‘atning turli xil usullaridan individual jarayonlarni birlashtirish orqali amaliy san‘at asarlarini yaratish uchun yangi loyihalarni topish taklif etiladi.

Ikkinchi va uchinchi turdagi kreativ ijodiy vazifalarni hal qilishda talabalar asosan maxsus an‘anaviy vositalar va usullardan foydalanadilar. Asbob uskunalarining o‘zi ham talabalar uchun ijodiy jarayonning asosi bo‘lishi mumkin. Ushbu yo‘nalishda amaliy san‘atda kreativ loyihalash ishlarini tashkil etish uchun talabalar to‘rtinchi turdagi kreativ ijodiy vazifalarni hal qilishga taklif qilinadi. Amaliy san‘at asarlarini yaratish jarayonlarini amalga oshirish uchun texnik vositalarni ishlab chiqish (ko‘rib o‘tilayotgan misolda-yangi jarayonlarni amalga oshirish uchun mozayka va akvarelni qo‘llash).

Shu bilan bir qatarga, o‘qitish mazmunini o‘ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan, talabalar tomonidan yaratilayotgan amaliy san‘at asarlari shakllarini loyihalashning an‘anaviy muammolariga yechim topishlari zarur. Ular qismlarning mutanosibligi, tashqi ko‘rinishining nafisligi, ranglarining mosligi, yaratilishi va qonuniyati, foydalanishdagi qulayliklari bilan tavsiflanishi kerak.

Misol uchun, mozayka texnikasida amaliy san‘at asarlari loyihasi namunalarini amalga oshirish va akvarel bilan qo‘llash texnikasi amaliy san‘at asarlari yuzasidan ortiqcha rangli shisha bo‘laklarini tez va keraksiz ranglanmasdan olib tashlashga yordam beradigan vositalarni talab qildi.

Tadqiqotchilik va takomillashtirish vazifalariga yechim topish uchun hammaga ma‘lum kreativ loyihalash hamda, ijodkorlik birlashtirish texnologiyalaridan foydalanish zarur buladi.

Bugungi kunga kelib, olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning asosiy

“mazmuni amaliy san’at darslarida ijodiy dizayn faoliyati subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir intensivligi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan nazariy modellar, usullar va vositalarni takomillashtirishdan iborat.

Loyihalash faoliyatini faollashtiradigan yondashuvlar, usullar va vositalarni eksperimental izlash, tanlangan yo‘nalishlariga muvofiq yo‘naltirilgan eng maqbul pedagogik sharoitlarni tahlil qilish amaliy san’at darslarida talabalarning dizayn faoliyatini faollashtirish metodologiyasini ishlab chiqishga olib keladi. Tajriba-sinov ishlari ushbu asosiy bosqichlarni belgilash zaruyatini ko‘rsatdi”[82]:

talabalarning kognitiv bilim ko‘nikmalari va ularni baholashni faol ravishda tashkil etishning dolzarbligini ta‘minlash, o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan loyihalarni shakllantiruvchi va maqsadni belgilovchi harakatlar, shu jumladan ijodiy fikrlash usullarni qo‘llash va talabalarga grafik tasvirlarning o‘zgaruvchan ketma-ketligini taqdim etish:

- amaliy san’at namunalarini yaratishning muayyan ekologik jarayonlarida ijodiy faoliyat mazmunini umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan, shuningdek, topshiriqqa ijodiy fikrlash usullari to‘plamini kiritish asosida talabalarning dizayn faoliyatining asosini tashkil etuvchi dizayn vazifalari tuzilmasi shaklida ijodiy vazifalar to‘plamini taqdim etish orqali, amaliy san’atning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan ijodiy vazifalar;

- kreativ fikrlash usullardan foydalangan holda tabiiy mavjud shakllarni amaliy san’at shakllariga aylantirishning o‘quv va ijodiy hal qilish orqali loyihalash muammolarini hal qilish variantlarini izlashga qaratilgan talabalarning mustaqil loyihalash faoliyatini tashkil etish;

- kreativ fikrlash usullaridan foydalangan holda ularning yangi o‘ziga xos kompozitsiyalarini amaliy san’atning turli usullarini mujassamlashtirish va ijodiy yechimlarni tahlil qilish orqali loyihalash muammolarini hal qilishning mumkin bo‘lgan usulini topishga qaratilgan talabalarning o‘quv va kreativ faoliyatini tashkil etish;

- amaliy san’at asarlarini yaratishning yangi o‘ziga xos usullarini ishlab chiqarishda talabalarning loyihalash faoliyatini tashkil etish, yakka tartibdagi kompozitsiyalarni birlashtirish muammosini hal qilish orqali amaliy san’atning asl ko‘rinishlarini yaratish mumkin bo‘lgan variantini aniqlashga qaratilgan;

- kreativ yondoshuv metodidan foydalangan holda amaliy san’at jarayonlarini amalga oshirish uchun texnik vositalarni takomillashtirish va yangi kompozitsiyalarni izlashga qaratilgan talabalarning kreativ faoliyatini tashkil etish;

Kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishning kreativ yondoshuv metodlaridan foydalangan holda amaliy san’at kompozitsiyalarini yaratish uchun izlab, eng maqbul variantlarini birlashtirish orqali talabalarning kreativlik va loyihalash faoliyatini tashkil etish.

Talabalar faoliyatining ushbu turini faollashtirish uchun ishlab chiqilgan usullardan foydalanish asosida talabalarning amaliy san’at darslarida ijodiy dizayn faoliyatini tashkil etish misolini keltiramiz. Masalan, ular o‘quv va ijodiy vazifalar tizimi va amaliy san’at o‘quv jarayonidagi muammolarni izchil hal etish bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri tashkil etishdir.

Kreativ loyihalash faoliyatini tashkil etish jarayonida talabalar tabiiy

shakllarni badiiylashtirish orqali tayyorlangan badiiy loyihani ishlab chiqishga taklif qilindi. Ushbu loyihalar bo'yicha ishlar loyiha topshirig'ini tahlil qilishdan boshlab bosqichma-bosqich tashkil etildi. Tahlil bosqichi amaliy san'at asarlari obrazining badiiy g'oyasini izlashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, o'quv va ijodiy vazifalarning maqsadini tushunish talabalar tomonidan muammoli vaziyat, vaziyatning yangi turi sifatida ko'rib chiqiladigan dizayn ishlarining holatini mustaqil ravishda aniqlashtirish sifatida tashkil etiladi.

Biz tomonimizdan taklif qilinayotgan metodikaga muvofiq, ushbu bosqichda talabalarining kreativ faoliyat ko'nikmalarini faollashtirish va ular tomonidan taklif qilingan loyihalar, ularning baholash, mazmun yaratish va maqsadlarni belgilash harakatlarini bir-biriga bog'liq ravishda kiritish orqali tashkil etiladi, shu jumladan talabalarga amaliy san'at asarlarini yaratish jarayonlarini namoyish etadigan o'zaro bog'liq grafik tasvirlarning o'zgaruvchan ketma-ketliklarini taqdim etishadi.

Shunday qilib, ijodiy vazifalar to'plamidan foydalangan holda tasviriy va amaliy san'at talabalarining kreativ faoliyatini faollashtirish uchun taklif qilingan metodika bilan tajriba o'tkazish shuni ko'rsatdiki, bu talabalarda ijodiy shaxsning fazilatlarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Bizning xulosalarimizga ko'ra, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan tasviriy va amaliy san'at ta'limi mazmuniga, shuningdek tugallangan dizayn va ijodiy faoliyat bosqichlariga muvofiq taklif qilinadigan to'rt turdagi ijodiy vazifalar to'plami ushbu ijodiy faoliyat turini faollashtirishning samarali vositasidir.

Ushbu vazifalar amaliy san'at talabalarining ijodiy dizayn faoliyati jarayoniga o'zaro ta'sirda kiritilishi kerak va ularni qo'llashning yaxlitligi ijodiy faoliyat obyekti va o'quv jarayoni maqsadlarining birligi bilan ta'minlanadi.

Dissertatsion tadqiqot ishining to'rtinchi bobi **“Tajriba-sinovni amalga oshirish metodikasi va natijalari tahlili”** deb nomlangan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida amaliy san'atning kasbiy malaka va ko'nikmalari bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar tizimi va quyidagi: hissiy-motivatsion; yo'naltiruvchi-rejalashtiruvchi; mazmunij-jaraynli; nazorat baholash kabi faoliyat komponentlarida namoyon bo'lishi ko'rsatilgan.

Oliy ta'lim talabalari kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari OTM lap (Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo) negizida 2018-2023 yillar davomida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarida jami 356 ta talaba ishtirok etdi. Amaliy san'atning o'ziga xosligi va bu soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib tajriba-sinov ishlarida ishtirok etganlarning sonini yetarli deb hisoblash mumkin.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi-talabalarni kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishning pedagogik modeli samaradorligini sinab ko'rishdan iborat. Tajriba-sinov ishlari qayd etish, shakllantirish va tashhislash bosqichlaridan iborat holda amalga oshirildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida talabalarni o'quv-badiiy faoliyatning natijalariga bo'lgan qiziqishga, topshiriqlarni o'z vaqtida va aniq bajarishga, shuningdek mustaqil ravishda kreativ bajarishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar sinovdan o'tkazildi.

Nazorat va tajriba-sinov guruhi talabalarining kreativ loyihalash ishlari bilan

tanishish natijasida quyidagilar namoyon bo'ldi: tajriba-sinov guruhida sezilarli darajada ilgari ketilganligi kuzatildi.

Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida jami 356 nafar o'quvchilar qatnashdi. Shundan Qarshi davlat universiteti misolida tajriba-sinov ishlarida 137 nafar (tajriba 68 va nazorat guruhida 69 nafar), Termiz davlat universiteti 141 nafar (tajriba 71 va nazorat guruhida 70 nafar), Buxoro davlat pedagogika instituti 78 nafar (tajriba 39 va nazorat guruhida 39 nafar) talabalar qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi - talabalar kreativ rivojlanishi pedagogik modelining samaradorligini sinab ko'rishdan iborat. Tajriba-sinov ishlari qayd etish, shakllantirish va tashhishlash bosqichlaridan iborat holda amalga oshirildi.

Tajribaning birinchi qayd etish bosqichida quyidagilar amalga oshirildi:

- oliy ta'lim muassasalarini "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ixtisosligi bo'yicha mavjud bo'lgan o'quv rejalari va amaliy san'at kompozitsiyasiga oid dasturlarning tahlili;

- amaliy san'at san'ati kompozitsiyasiga oid dasturlarni o'qitishning holatini o'rganish;

- amaliy san'at kompozitsiyasini o'rganish borasida talabalarning boshlang'ich tayyorgarlik darajalarini, shu jumladan sinov tarzidagi alohida kompozitsion topshiriqlarning bajarilishi tahlil qilish.

Pedagogik tajriba sinovning dastlabki bosqichi o'quv mavzularining ko'lamini, ularning mantiqiy ketma-ketligini va o'quv materiallarini etkazib berish tartibini aniqlash masalalari bilan bog'liq holda o'tkazildi. Eksperimentlarni o'tkazish jarayonida biz yuqori malakaga ega mutaxassislarni shakllantirish nuqtai nazaridan o'zimiz xohlagan yakuniy natijalarga erishish nuqtai nazaridan ishladik. Mavjud dasturlar va o'quv dasturlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar amaliy san'at sohasida etarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lolmaydilar.

Talabalarda badiiy tafakkur, kreativ tasavvur yetarli darajada rivojlantirilmaganligi sababli bitiruv malakaviy ishlari yoki namuna asosida yoki zamonaviy talablarga javob bera olmaydigan loyihalar asosida amalga oshirilgan. Ularda amaliy san'at kompozitsiyasi ta'limining metod va shakllari yetarli darajada samarali shakllangan emas.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish maqsadida amaliy san'atdagi kompozitsiya usullarini o'zlashtirishning sifatini o'rganish uchun majmuaviy tashhishlash ishlab chiqilgan va kompozitsiya bo'yicha amaliy san'at kasbiy tayyorgarligining darajalari aniqlangan: yuqori, o'rta, past. Talabalar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlarning tahlili quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

- ta'lim jarayonini kuzatish ishlari olib borilgan;

- talabalarning estetik ehtiyojlari, estetik did va kreativ loyihalash faoliyatini rivojlanishi darajasi o'rganilgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida talabalarni o'quv-badiiy faoliyatning natijalariga bo'lgan qiziqishga, topshiriqlarni o'z vaqtida va aniq bajarishga, shuningdek mustaqil ravishda ijodiy bajarishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar sinovdan o'tkazilgan.


Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Styudentning mezoni, Karl Pearsonning muvofiqlik kriteriysidan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz:

Tajriba-sinov oxirida o‘tkazilgan barcha oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar

Daraja ko‘rsatkichlari Uchala OTM	1-mezon		2-mezon		3-mezon		O‘rtacha ko‘rsatkich			
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	%	NG	%
<i>Yuqori daraja</i>	74	55	72	52	74	56	73	41	54	30
<i>Yaxshi daraja</i>	78	62	81	61	78	57	79	45	60	34
<i>O‘rta daraja</i>	21	45	19	46	20	43	20	11	45	25
<i>Past daraja</i>	4	17	5	20	5	23	5	3	20	11
Jami	177	179	177	179	176	180	177	100	179	100

Tajriba-sinov oxirida o‘tkazilgan barcha oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari diagrammasi.



1-jadval

1-tanlanma						
Tajriba guruhi	X_i	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Past	Jami
	n_i	73	79	20	5	n=177
2-tanlanma						
Nazorat guruhi	Y_j	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Past	Jami
	m_j	54	60	45	20	m=179

Demak, talabalarning amaliy san'at kompozitsiyalarni o'qitishda kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirish bo'yicha samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldiki, barcha oliy ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarining bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1,11(11%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Buni 95 % ishonchlilik bilan aytish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi va ular hech qachon ustma-ust tushmaydi.

XULOSALAR

1. Tadqiqot natijasida amaliy san'at mashg'ulotlarida aniqlangan shart-sharoitlar talabalar kreativ loyihalash faoliyatlarini faollashtiradi, ulardan foydalanish o'qituvchi uchun amaliy mashg'ulotlarda alohida o'ziga xos faoliyat vaziyatini yaratadi. Shu bilan birga taklif etilayotgan metodika talabalarining kreativ faoliyatlarida motivatsiyani oshiradi. Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

2. Ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy tahlili, amaliy san'atning tarixiy tajribasi va rivojlanishini o'rganish hamda mazkur ta'limda o'ziga xoslik, pedagogik ta'limotning amaliy san'at oliy ta'limdagi o'rni ochib berildi.

3. Ta'limini amaliy san'at sohasi estetik muhitning o'ziga xoslik jarayonida talabalar uchun kreativ izlanishni amalga oshirish shart-sharoiti, amaliy san'at ta'limi sohasida milliy-an'anaviy va xorijiy ta'lim tajribasi asosida asarlarni yuqori badiiy tarzda yaxlit bajarilishi ta'kidlandi.

4. Tadqiqotda bo'lajak mutaxassislar kasbiy ta'limi jarayonining komponentlari hamda amaliy san'at ta'lim jarayonini modellashtirishning pedagogik tashkil etuvchilari aniqlandi.

5. Zamonaviy ta'lim jarayonida amaliy san'at kompozitsiya darslarida talabalarining kreativ loyihalash faoliyati rivojlantirish qonuniyatlari – avlodlar uzviyligi tizimida o'zining ishtirokchi ekanligini anglash hamda xalq amaliy san'ati

an'analarini o'zlashtirish; amaliy san'at sohasida yaratilgan asarlarning estetik qadriyatli ekanligini tushunish; atrof-borliqni amaliy san'at asarlari badiiy obrazlarida o'z aksini topganligini ijodiy anglab yetish; kompozitsiyalarda naqsh, akvarel, emal, shisha va boshqalar bilan uyg'unligini ta'minlovchi o'ziga xos usullardan foydalanishiga erishildi.

6. Talabalarining kreativ loyihalash qobiliyatlarini rivojlantirish: atrof muhitga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabatlarni shakllanganlik darajasining yuqoriligi; badiiy obrazlarni ifodalash uchun real dunyo obyektlarini badiiy stillashtirish, talqin va kombinatsiyalar qila olish qobiliyatining mavjudligi; loyihaning materialda ifodalanish imkoniyatini yaratuvchi maxsus texnologiyalarga ega bo'lishlik mezonlari tashkil etilishi ilmiy asoslandi.

7. Amaliy san'at kompozitsiyalari bo'yicha majmuaviy predmetlar tarkibi mazmunini quyidagilar: "Kompozitsiya asoslari", "Tasviriy va amaliy san'at tarixi", "Amaliy san'at asarlarini tayyorlash texnologiyasi" va mamlakatimiz xalq amaliy san'atiga taalluqli materiallardan foydalanish hamda amaliy san'at yuzasidan buyumlarga badiiy ishlov berishga asoslangan kreativ topshiriqlar tizimidan iboratligi ta'kidlandi.

8. Ta'lim tizimida: oliy ta'lim jarayonining mazmuni metodika nuqtai nazaridan chuqurlashtirib o'tish modeli tatbiq etilsa; mutaxassislar tayyorlashning an'anaviy va innovatsion ta'limi shakl va metodlari pedagogik potensialidan faol foydalanish amalga oshirilsa; talabalarda amaliy san'at sohasining kasbiy ko'nikmalari shakllanishi bosqichma-bosqich, rivojlantirib borilsa, amaliy san'at ta'limida pedagogik modelini amalga oshirish samarali kechadi.

9. Amaliy san'at sohasidagi talabalarining amaliy san'at ta'limi pedagogik modelini amalga oshirishda eng ahamiyatli prinsiplar – nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlarning o'zaro bog'liqligi; talabalarining kreativ izlanishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; talabalar faolligi va kreativ mustaqilligini rivojlantirish; ularning badiiy, psixologik-pedagogik va amaliy jihatdan tayyorgarligida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash asosida ta'lim jarayonini ijodkorlik usulida tashkil etish lozimligi ilmiy asoslandi.

10. Amaliy san'at ta'limida talabalarining kreativ loyihalash faoliyatini faollashtirishning pedagogik modeli samaradorligini amalga oshirishning asosiy mezonlari aniqlandi: amaliy san'at an'analari, erishilgan yutuqlarni yuqori darajada anglash hamda tatbiq etish; bozor iqtisodiyoti sharoitida amaliy san'at sohasida o'z maqsad yo'nalishiga erishish amaliy san'at kreativ faoliyatida motivatsiya tamoyillarini his etish muhimligi ilmiy-amaliy tomondan izohlandi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

1) Talabalarni kreativ yondashuv asosida amaliy san'at ta'limiga tayyorlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan "Kreativ g'oyalar" fan to'garagini tashkil etish maqsadga muvofiq;

2) kognitiv va kreativ o'quv topshiriqlarini tizimli ishlab chiqish va tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi ixtisosligi amaliy san'at fani doirasida keng qo'llash lozim;

3) tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalarini kreativ yondashuvga tayyorlashda ularning iqtidori va qobiliyatini uzluksiz rivojlantirib borish maqsadida plener amaliyotlari asosida yangi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va joriyl etish zarur;

4) kreativ yondashuv asosida loyihalash faoliyatini faollashtirishda o'qituvchining kasbiyl nuqtai nazari muhim o'rin tutib, malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga "O'qituvchining amaliy san'atga tayyorlashga kreativ loyihalash kompetensiyasi" o'quv modulini kiritish maqsadga muvofiq.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS
I bo'lim (I част; I part)

1. Kamolov I.B. Amaliy san'atni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. (Monografiya). Qarshi: Intellect, 2021.—116 b.
2. Kamolov I.B. Some Stages Associated with Artistic and Creative Activity of Future jeweler // Eastern European Scientific Journal-Ausgabe 1-2017 ISSN2199-7977, P-160 (13.00.00, № 1)
- 3.Kamolov I.B. Vocational Education of Jewelry Art Students: theoretical foundations // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities Vol.2-2022, ISSN 2749-0866, (13.00.00, № 16)
4. Kamolov I.B.O'zbek milliy zargarlik san'ati orqali o'quvchilar badiiy estetik tarbiyasini shakllantirish// Ta'lim, fan va innovatsiya. -Toshkent, . 2018. №4. -B.115-118. (13.00.00; №15)
5. Kamolov I.B.O'quvchi-yoshlarda ijodkorlik faoliyatlarini tashkil qilishning asosiy omillari//Uzluksiz ta'lim.- Toshkent, 2018. №5. Б-37. (13.00.00; №15)
6. Kamolov I.B. Kasbiy faoliyat jarayonida talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi// "Xalq ta'limi" -Toshkent, 2021, №3. Б-37.(13.00.00; №15)
7. Kamolov I.B. Amaliy san'at orqali o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasini rivojlantirish// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.—Buxoro,2022, №4.(13.00.00; №00)
8. Kamolov I.B. An'anaviy amaliy san'atda badiiy bezakning o'rni // "Pedagogika" .—Toshkent,2022№3.(13.00.00; №00)
9. Kamolov I.B. Grafik natyurmortni yaratishni o'rganish tajribalari// Pedagogik mahorat, Buxoro,2021,№ 2.(13.00.00; №00)
10. Kamolov I.B. Tasviriy san'at asarlarini o'rgatishda axborot texnologiya vositalaridan foydalanish // Elektron ta'lim.-Навоий, 2022, №1, .(13.00.00; №00)
11. Kamolov I.B. Organization of fine arts classes based on modern Pedagogical technologies to improve efficiency// Pedagogy & Psychology Theory and practice International scientific journal Volgograd, № 1 (27), 2020.
12. Kamolov I.B. Professional ta'limda amaliy san'atning fanlar aro bog'liqligi// Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi, 2022 В-364-366
13. Kamolov I.B. Amaliy san'at ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy mohiyatning faoliyat nazariyasi bilan o'zaro bog'liqligi//Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi, 2022 В-307
14. Камолов И.Б. Формирование у учащихся умения преподават ювелирные уроки//Материали Международной научно-практической конференции «Шоқан оқулари - 23» -Көкшетау, 2019. Ст -21
15. Камолов И.Б.Формирование у учащихся умения преподават ювелирные //International scientific journal 2019 yil 3/67 27 bet

II bo‘lim (II част; II part)

16. Kamolov I.B. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi (Darslik) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil “ 25 ” dekabrda “538 ”-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan «Intellect» nashriyoti, 2021.

17. Kamolov I.B. Amaliy san’at (O‘quv qo‘llanma) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil “ 31 ” mayda “237”-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan «Intellect» nashriyoti, 2021.

18. Kamolov I.B. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil “ 23 ” noyabrda “500”-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan «Intellect» nashriyoti, 2021.

19. Kamolov I.B. Tasviriy san’at tur va janrlari (o‘quv uslubiy qo‘llanma) // Qarshi davlat universiteti qoshidagi nashriyot markazi (Uslubiy qo‘llanma Qarshi davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2019-yil 7 noyabrda navbatdan tashqari 2-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan)

20. Kamolov I.B. Amaliy san’at va badiiy bezak san’ati (o‘quv uslubiy qo‘llanma) Qarshi davlat universiteti qoshidagi nashriyot markazi (Uslubiy qo‘llanma Qarshi davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2020-yil 11 sentabrda navbatdan tashqari 1-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan)

21. Kamolov I.B. Sariyev R.Sh. Chizmachilik darslarida o‘quvchilarning ijodiy loyihalash g‘oyalarini shakllantirish // Ilm sarchashmalari, -Urganch, 2022. №8. (13.00.00; №00)

22. Камолов И.Б. Особенности развития творческих способностей студентов в процессе профессионального образования // Молодой ученый № 10 (300) / 2020

23. Kamolov I.B. Qorjovov B.J. The interpretation of insight and the experience of human in the artist kazimir malevich’s "black square" // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol.2-2022, ISSN 2749-0866, (13.00.00, № 16)

24. Kamolov I.B. Tasviriy san’at tarixi // Intellectual mulk agentligi, № DGU 11157

25. Kamolov I.B. A. Narziyeva. International Journal of Academic Research in Business, Arts and Science (IJARBAS.COM) The Practical and Social Importance of Art in The Spiritual and Moral Form of the Person. Vol-3. Page: 27-32. ISSN 2664-7354 (Online)

24. Kamolov I.B. Xalilov L. Grafik natyurmortni yaratishni o‘rganish tajribalari // Pedagogik mahorat. -Buxoro. 2021. № 2. (13.00.00; №00)

25. Kamolov I.B. Tilavov A.Sh. International journal on human computing studies // The role of painting in the folk art of Surkhandarya. 2021. Vol-03. ISSN: 2615-1898